



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	12
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI)	18
Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI	26
Xatamov Ochildi Qurbonovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	32
PhD. Юлдашева С.Ш	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	38
Haydarova Dinora Atamurot qizi	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ	43
Гоженко Борис Владимирович	
MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH	50
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI	55
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova	
Nizomov Murod	
Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE	58
Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH	62
R.I.Rashidov	
A.N. Elmurodov	
A.A. Muhiddinov	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS	68
Bokhodirol Boriykhon Boburovich	
Bahromjon Urmanov	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIIYA VA KREDIT SALOHIIYATINI BOSHQARISH	74
Ergashova Nilufar Sobirovna	
DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	80
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
VERTIKAL INTEGRATSIYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI	84
Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI	90
Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich	
TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR	94
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА	100
Маърупова Дилсора Абдулла кизи	
O'ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTSIONAL SHART-SHAROITLARI.....	105
Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li	
АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ	113
Усманова Зумрад Исламовна	
Рахматуллаев Алижон	
Сайфитдинов Азизжон	
G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA)	119
Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ	127
Джусупов Кубанычбек	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBİ AXBOROT TA'MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	133
Umidjon Kostayev	



STRATEGIK BOSHQARUV HISOB AXBOROT TA'MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Umidjon Kostayev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
 “Moliyaviy hisob va hisobot” kafedrası
 dotsent, iqtisodiyot fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada strategik boshqaruv hisobida ma'lumotlardan samarali foydalanish va ularni xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga oid uzoq muddatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida qo'llash masalalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini baholash uchun strategik salohiyat ko'rsatkichlari majmuasidan foydalanish yo'nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: ma'lumot, axborot, bilim, strategiya, bilim salohiyati, strategik qaror, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil va interpretatsiya.

Abstract. The article provides a detailed discussion of the effective use of information in strategic management accounting and its application in the process of making long-term managerial decisions related to the activities of business entities. The article also identifies the directions for using a set of strategic potential indicators to assess the performance and activities of business entities.

Keywords: data, information, knowledge, strategy, knowledge potential, strategic decision, data collection, processing, analysis and interpretation.

Аннотация. В статье подробно освещены вопросы эффективного использования информации в стратегическом управленческом учёте и её применения в процессе принятия долгосрочных управленческих решений, связанных с деятельностью хозяйствующих субъектов. Также в статье определены направления использования комплекса показателей стратегического потенциала для оценки деятельности хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: данные, информация, знания, стратегия, потенциал знаний, стратегическое решение, сбор данных, обработка, анализ и интерпретация.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida globallashuv jarayonining jadallashuvi, dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlanishining barqaror emasligi hamda xalqaro miqyosdagi xavf-xatarlarning ortib borishi O'zbekiston iqtisodiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Globallashuv jarayonining aholi bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilash kabi ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ayrim murakkab tomonlari ham mavjud. Dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuv ko'proq kuchli iqtisodiyotga ega yirik davlatlar uchun manfaatli bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarning o'rta va kichik kompaniyalari transmilliy kompaniyalar bilan raqobatlashishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Bunday sharoitda har qanday o'zgarishlarga tezkor moslasha oladigan iqtisodiy siyosat yuritayotgan va uzoq muddatli strategik konsepsiyaga ega davlatlar sezilarli natijalarga erishishi mumkin. Uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida 2030-yilga qadar mamlakatimiz iqtisodiyoti hajmini oshirish va “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish strategik maqsad sifatida belgilangan bo'lib, unga erishish uchun yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard AQSH dollariga hamda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 5,8 ming AQSH dollaridan yuqori darajaga yetkazish choralari belgilangan¹.

Aynan strategik maqsadlarni belgilash, ularga erishish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ularning monitoringini olib borish hamda uzoq muddatli strategik rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash strategik boshqaruv hisobi doirasida, aniqrog'i, mazkur hisobning axborot ta'minoti orqali amalga oshiriladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 февралдаги “Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислохотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-21-сон Фармони.



Strategik boshqaruv hisobi murakkab, ko'p qirrali va keng qamrovli jarayon hisoblanadi. Moliyaviy hisobdan farqli ravishda, strategik boshqaruv hisobini amalga oshirish bo'yicha yagona va qat'iy tizim mavjud emas. U baholashning keng yo'nalishlari hamda ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi. Shuningdek, nafaqat tarixiy jarayonlarni, balki joriy, kelgusi va istiqboldagi ko'rsatkichlarni ham qamrab oladi, ularni prognozlaydi va asosiy parametrlarini belgilaydi. Shu bois strategik boshqaruv hisobida turli usullar va uslubiy yondashuvlardan keng foydalaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Strategik boshqaruv hisobining mohiyati va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalar ko'lamini belgilashda K. Drurining ilmiy tadqiqot natijalari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohadagi yetuk g'arb olimlaridan biri bo'lgan K. Druri strategik boshqaruv hisobini boshqaruv hisobining istiqbolli yo'nalishi hamda ushbu hisob turini kelgusida takomillashtirish vositasi sifatida talqin etadi².

Shunga o'xshash ilmiy qarashlarni O.V. Alekseeva, M. Bromvich, J. Innes, O.E. Nikolaeva, S.P. Suvorova, K. Uord va boshqa olimlar ham qo'llab-quvvatlaydilar hamda strategik boshqaruv hisobining mazmun-mohiyatiga yaqin yondashuvlarni ilgari suradilar.

Rossiyalik olimlardan I.V. Alekseeva, I.N. Bogataya, V.E. Kerimov, L.O. Ivashinenko va N.I. Ponomareva o'zlarining mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarida "strategik hisob" atamasiga yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy qarashlariga mos ravishda yondashganlar.

O'zbekistonlik olimlardan A.A. Abdug'aniyev, N.B. Abdusalamova, A.K. Ibragimov, U.U. Kostaev, A.X. Paradaev, S.N. Tashnazarov, B.A. Xasanov va K.B. O'razovlarning ilmiy ishlarida strategik boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy hamda ilmiy-uslubiy jihatlarini o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qo'yilgan vazifalarni hal etishda kuzatish, ma'lumotlarni to'plash, taqqoslash, tahlil qilish, nazariy va amaliy ma'lumotlarni sintez qilish hamda ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda qo'yilgan vazifalarni hal etishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, kuzatish, ma'lumotlarni to'plash, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilish, nazariy va amaliy ma'lumotlarni sintez qilish hamda ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirish usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy va mamlakatimizning ushbu sohadagi iqtisodchi olimlari tadqiqotlariga tayangan holda, xo'jalik yurituvchi subyektlarda reja va tahliliy ko'rsatkichlar tizimining shakllanish jarayonlari tanqidiy o'rganib chiqildi. O'rganishlar natijasida strategik tahlil, prognozlashtirish va rejalashtirish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning o'ziga xos jihatlarini to'liq aks ettiruvchi ssenariy modellashirish usulining mohiyati keng yoritib berildi.

Tahlillar natijasida mazkur modeldan foydalanib, muhim tahliliy hamda istiqbolni belgilovchi ko'rsatkichlarni o'zida mujassam etgan strategik boshqaruv hisobotini tuzish zarurligi to'g'risida xulosaga kelindi³. Xo'jalik yurituvchi subyektning strategik boshqaruv hisoboti mas'uliyat markazlarida shakllantiriladigan biznes-rejalar va joriy budjetlar, shuningdek, ularning bajarilish natijalari inobatga olingan holda tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Taklif etilayotgan tizimda asosiy manba, ya'ni hisobot shakli sifatida xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy-xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini o'zida jamlagan strategik prognoz balansini tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur balans umumlashtirilgan ko'rinishda tuziladi hamda yaqin strategik istiqbolda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini baholash imkonini beradigan tahliliy ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi.

Strategik boshqaruv hisobi vositasi sifatida tanlab olingan strategik prognoz balansini xo'jalik yurituvchi subyekt strategiyasini amalga oshirish bo'yicha joriy faoliyatni tartibga solish imkoniyatini yaratadi. Bunday tartibga solish jarayoni nazorat ko'rsatkichlarini rejalashtirilgan va amalda erishilgan natijalar bilan taqqoslash orqali qayta aloqa tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Eng muhimi, xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish uchun taklif etilayotgan strategik prognoz balansida moliyaviy ko'rsatkichlarning strategik parametrlaridan tashqari, ilk bor nomoliyaviy xususiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur. Bu esa, o'z navbatida,


2 Drury K. Management Accounting Official Terminology. 2000 //Scarlett & Wilks. 2001.

3 Стратегик бошқарув ҳисобини ташкил қилишнинг назарий ва амалий асослари: Монография /У.У.Костаев: - Т.: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 180 бет, 123-145 бетлар.



xo'jalik yurituvchi subyektlarning strategik maqsadlarga erishishida nafaqat resurs salohiyati (moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari), balki shu paytgacha yetarlicha e'tibor qaratilmagan muhim omillar majmui, ya'ni "bilim salohiyati" ham hisobga olinishi lozimligini ko'rsatadi.

Mazkur fikr-mulohazalardan kelib chiqib, strategik prognoz balansini shakllantirishning asosiy bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Strategik prognoz balansini shakllantirish jarayonining chizmasi⁴

1-rasmda keltirilgan o'zaro bog'liqliklarga amal qilish strategik prognoz balansini shakllantirishning asosiy bosqichlarini kuzatish hamda alohida bosqichlar o'rtasidagi ichki aloqalarni aniq aks ettirish imkonini beradi. Chetlanishlar alohida mas'uliyat markazlari darajasida, shuningdek, butun xo'jalik yurituvchi subyekt bo'yicha hamda o'rta tarmoq ko'rsatkichlariga nisbatan ham aniqlanadi.

Shunday qilib, boshqaruvning strategik va operativ darajalari o'rtasidagi doimiy uyg'unlik ta'minlanadi hamda joriy operativ va strategik prognozlar hamda rejalarining o'zaro muvofiqligi mustahkamlanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, strategik boshqaruvni amalga oshirishda strategik prognoz balans tahlili va uni shakllantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi uchta funksional yo'nalish ajratib ko'rsatildi:

- strategik qarorlar qabul qilish va yangi vazifalarni shakllantirish;
- strategik prognoz balansida belgilangan moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar hamda strategik salohiyat ko'rsatkichlari majmuasini kuzatish orqali belgilangan strategiyaga erishish holatini doimiy va uzluksiz monitoring qilib borish;
- strategik yo'nalishlardagi o'zgarishlarni baholash hamda tanlangan strategiyani qayta ko'rib chiqish.

Bizning fikrimizcha, mazkur funksional yo'nalishlarning samarali amalga oshirilishi strategik prognoz balansini ijrosining uchta asosiy bosqichi — tayyorlash, shakllantirish va bashorat qilish davrlarining o'zaro uzviy bog'liqligiga asoslanadi.

Strategik prognoz balansini strategik boshqaruv hisobida ma'lumotlar bazasining ichki tashkiliy bilimlar bilan tezkor integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ma'lumotlar bazasining zarur yaxlitligini saqlashga hamda uning strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Biroq xo'jalik yurituvchi subyektlar strategik boshqaruv hisobining markaziy elementi hisoblangan prognoz balansini strategik hisobotning boshqa shakllaridan ajratgan holda ko'rib chiqmasliklari lozim. Aniqroq aytganda, strategik boshqaruv hisoboti shakli sifatida strategik prognoz balansini uning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblangan quyidagi hisobotlar bilan o'zaro uyg'un holda shakllantirilishi maqsadga muvofiq:

4 Muallif ishlanmasi



- strategik maqsadlar natijasida olinadigan foyda prognozi;
- pul oqimlari budjeti;
- kapital va investitsiyalar budjeti;
- bozor ulushi o'sishi prognozi;
- strategik salohiyat ko'rsatkichlari prognozi;
- hamda strategik rivojlanishni tavsiflovchi boshqa analitik hisobotlar.

Mazkur hisobotlarning o'zaro integratsiyalashgan holda shakllantirilishi strategik boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va xo'jalik yurituvchi subyektning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, mazkur yo'nalishdagi eng muhim masala — xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini rivojlantirish bo'yicha strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda an'anaviy yondashuvni takomillashtirishdan iborat. Ya'ni, faqat iqtisodiy ma'lumotlar majmuasini hisoblash va tahlil qilish bilangina cheklanib qolmasdan, xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy bilim darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur. Eng muhimi, ushbu ko'rsatkichlar iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'lanishi, ularni to'ldirishi hamda yakuniy boshqaruv qarorlari ana shu integrallashgan axborotlar asosida qabul qilinishi lozim.

Biz bilimlarni dinamik konsepsiya sifatida talqin qilamiz. Strategik boshqaruv hisobi tizimida nafaqat mavjud bilimlarni mustahkamlash, balki ularni muntazam yangilab borish, dolzarblashtirish va samarali taqdim etish jarayoni ham amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, strategik boshqaruv hisobi yangi axborot aloqalarini yuzaga keltiruvchi va mos ravishda strategiya to'g'risidagi yangi bilimlarni shakllantiruvchi tizim sifatida korporativ boshqaruvning umumiy tizimiga integratsiyalashadi.

Mazkur masala doirasida mavjud ilmiy maktablar qarashlari hamda iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish asosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning strategik faoliyatini kompleks baholashga xizmat qiluvchi, uning barcha muhim jihatlarini qamrab oladigan va belgilangan strategiyani amalga oshirish maqsadlariga yo'naltirilgan tizimni yaratish zarurligi asoslab berildi⁵.

Mazkur tizimda, avvalo, moliyaviy ko'rsatkichlardan tashqari, no'anaviy tabiatga ega bo'lgan omillar va ko'rsatkichlarning ta'sirini ham hisobga olish imkonini beruvchi mexanizmlar joriy etilishi lozimligi to'g'risida xulosa qilindi. Shu maqsadda xo'jalik yurituvchi subyektlarning strategik faoliyatini har tomonlama baholash hamda belgilangan strategiyani amalga oshirishga xizmat qiluvchi strategik salohiyat ko'rsatkichlari majmuasi (KSKM) taklif etildi.

Taklif etilayotgan KSKM faoliyatning turli jihatlarini tavsiflovchi va o'zaro bog'liq bo'lgan tahliliy bloklarga guruhlashtirilgan. Mazkur ko'rsatkichlar majmuasining kompleks xususiyati shundan iboratki, unda ilk bor moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar o'zaro chambarchas bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Qayd etilgan hisobot shakllari hamda strategik prognoz balansining o'zaro ichki bog'liqligi shundan iboratki, ularda asosiy moddalarning tarkibi, ularning miqdoriy o'zgarishlari hamda strategik salohiyat ko'rsatkichlari majmuasiga oid hisob-kitoblar batafsil aks ettiriladi. Bu esa tegishli tahliliy hisob-kitoblarni amalga oshirish, natijalarni xolis baholash hamda yuzaga kelgan chetlanishlarning sabablarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Belgilangan strategik maqsadlarga erishishning samarali yo'llarini aniqlash, ularni tahlil qilish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, resurslarni tejash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish strategik boshqaruv hisobining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bois strategik boshqaruv hisobi nafaqat korxonaning moliyaviy natijalarini baholash vositasi, balki uning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollarini aniqlash, raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda strategik salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytirish, innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

Strategik salohiyatning ilmiy mohiyatini o'rganishda turli yondashuvlar tahliliga asoslanib, uning umumlashtirilgan mazmuni quyidagicha talqin qilindi:

- moddiy va nomoddiy resurslar majmui hamda ularni jalb etish manbalari;
- oldinga qo'yilgan strategik maqsadlardan kelib chiqqan holda resurslardan samarali foydalanish uchun zarur imkoniyatlar, qobiliyatlar va vakolatlarining mavjudligi;
- strategik istiqbolda belgilangan maqsadlarga erishish va maksimal natijalarni ta'minlash qobiliyati.

Xo'jalik yurituvchi subyektning strategik maqsadlariga erishishida strategik salohiyatdan samarali foydalanish uchun zaxirada mavjud bo'lgan yoki amalda foydalanilayotgan resurslar, tashkiliy bilimlar, vakolatlar va imkoniyatlarni yagona kompleks tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan tahlillar asosida strategik salohiyatni biznesning ikki muhim jihati — strategik rivojlanish va

5 Стратегик бoшқарув ҳисобини ташкил қилишнинг назарий ва амалий асослари: Монография /У.У.Костаев: - Т.: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 180 бет, 126-129 бетлар.



qayta ishlab chiqarish tutashuvi nuqtai nazaridan baholash maqsadga muvofiq deb topildi.

Tashqi muhit sharoitlari nisbatan barqaror bo'lgan holatda ushbu tutashuvning birinchi komponenti ishlab chiqarish hajmining o'sishi va faoliyatning uzluksiz davom etishini ta'minlovchi asosiy manba vazifasini bajaradi. Bunda qisqa va o'rta muddatli istiqbolda tashkiliy yaxlitlikning saqlanib qolishi biznesning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.


Biroq uzoq muddatli istiqbolda faqat qayta ishlab chiqarish salohiyatining mavjudligi yetarli emas. Har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning rivojlanish istiqbollari mavjud resurslardan oqilona va tejamkor foydalanish, ularning hajmini kengaytirish, raqobatbardosh mavqeyini mustahkamlash, boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish hamda yangi bilim va kompetensiyalarni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu bilan birga, rivojlanish jarayoni nafaqat mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlarini takror ishlab chiqarish bilan, balki tashqi va ichki muhit talablarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan innovatsion va transformatsion jarayonlar bilan ham belgilanadi. Aynan rivojlanish tutashuvi orqali korporativ bilimlar bazasi kengayadi, innovatsiyalar joriy etiladi hamda investitsion jarayonlar faollashadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning strategik salohiyati holatini tavsiflovchi hamda mazkur ikki tutashuvning o'zaro aloqadorligini aks ettiruvchi konseptual model 2-rasmda keltirilgan.

Strategik boshqaruv hisobi tizimida strategik salohiyatning dual tabiati uni har tomonlama va kompleks tarzda baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv strategik salohiyatni nafaqat mavjud holat nuqtai nazaridan, balki istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari va ichki transformatsiya salohiyati bilan birgalikda tahlil qilishga xizmat qiladi.

Shunga ko'ra, strategik boshqaruv hisobi tizimida strategik salohiyatni baholash, tahlil qilish, monitoring qilish va vizuallashtirishga oid hisob-tahlil funksiyalarini samarali tashkil etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur funksiyalar asosida shakllantirilgan axborotlar xo'jalik yurituvchi subyektning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, strategik qarorlar sifatini oshirish hamda raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun muhim axborot bazasi vazifasini bajaradi (2-rasm).



2-rasm. Strategik salohiyat ko'rsatkichlarining o'zaro aloqasi⁶

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va xulosalar asosida ishlab chiqilgan yondashuv mulk shakli va faoliyat turidan qat'i nazar, har qanday xo'jalik yurituvchi subyektda strategik boshqaruv hisobini samarali tashkil etish va yuritish uchun amaliy imkoniyat yaratadi.

Mazkur ilmiy takliflarning amaliyotda qo'llanish mexanizmini ko'rsatish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining strategik taraqqiyotini modelashtirish variantlari ko'rib chiqildi.

6 Muallif ishlanmasi



Iqtisodiyotning kon-metallurgiya sanoati sohasidagi mutaxassislar foydali qazilmalarni o'zlashtirish strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasi doirasida quyidagi modellarni ajratib ko'rsatganlar:

- indikativ rejalashtirish modellari;
- istiqbolli rejalashtirish modellari;
- strategik prognozlash modellari.


Strategik prognozlash modeli rejalashtirish modellariga nisbatan bir qator muhim ustunliklarga ega hisoblanadi.

Birinchidan, prognozlash chuqurligi rejalashtirish chuqurligiga nisbatan ancha keng bo'ladi. Bu esa uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, rejalashtirish odatda loyiha qarorlarining nisbatan aniq va batafsil parametrlariga asoslanadi. Strategik prognozlash esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy parametrlaridagi uzoq muddatli va barqaror o'zgarishlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Uchinchidan, rejalashtirish jarayonida ko'rsatkichlar dinamikasini batafsil aks ettirish zarurati tufayli ko'rsatkichlar soni juda ko'p bo'ladi. Strategik prognozlashda esa odatda uzoq muddatli vaqt oralig'i (5–10 yil va undan ortiq davr) uchun bir nechta nazorat nuqtalarini belgilash bilan cheklaniladi.


To'rtinchidan, prognoz modellarini shakllantirishning asosi sifatida obyektlarning operativ va taktik rejalashtirish bo'yicha haqiqiy hamda loyihaviy tavsiflari xizmat qiladi. Ushbu tavsiflar keyinchalik ularning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari bilan to'ldiriladi. Vaqt intervallarining umumiyligi esa prognozlash va rejalashtirish modellarini bir vaqtning o'zida ishlab chiqish hamda ularni o'zaro muvofiqlashtirish imkonini beradi (3-rasm).



3-rasm. Prognozlash va rejalashtirish modellari uchun umumiy vaqt intervallarining chizmasi⁷

Strategik prognozlarning yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlari shundan dalolat beradiki, prognozlash modellarining asosiy mazmunini tarmoq, hududiy va funksional yo'nalishlar bo'yicha faoliyat yurituvchi ekspertlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan ekspert baholari tashkil etadi. Rejalashtirish va loyihalashtirish bo'yicha mutaxassislar esa mazkur baholarni tegishli hisob-kitoblar bilan to'ldiradi va aniqlashtiradi.

Shuningdek, prognozlash modellarini hududlarning axborot va institutsional modellarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ular hududiy rivojlanishni prognozlash jarayonida qo'llaniladigan uslubiy vositalarga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilash imkonini beradi hamda strategik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi (4-rasm).



4-rasm. “Muruntov” koni bazasidagi oltin ishlab chiqarish majmuasini rivojlantirish ssenariysi variantlarining chizmasi⁸

Pessimistik ssenariy kerarda kon ishlarining yakunlanishi bilan bir vaqtda resurslarni o'zlashtirish jarayonining ham to'xtashini nazarda tutadi. Bunday holatda oltin ishlab chiqarish hajmi 2030–2035-yillarda yakunlanadi va ishchilar soni 21 ming nafardan 15–17 ming nafargacha qisqarishi prognoz qilinadi.

⁷ Muallif ishlanmasi

⁸ Кадыров А.А., Санакулов К.С., Бибик И.П. Концептуальные основы стратегии инновационного развития Кызылкумского региона. –Ташкент: Узбекистан, 2013 г. - 400 с., стр.345.



Optimistik ssenariy esa karerning konturdan tashqaridagi hududlarini ochiq va yerosti usullarida o'zlashtirish, tanlab eritmaga o'tkazish texnologiyalarini qo'llash hamda konni ochish jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlashni nazarda tutadi. Ushbu ssenariyga ko'ra, oltin ishlab chiqarish hajmi ma'lum darajada kamayishi mumkin, biroq ishlab chiqarish faoliyatini uzoq muddat davom ettirish imkoniyati yaratiladi. Natijada kon boshqarmasi faoliyatini 2060–2065-yillargacha davom ettirishi mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Strategik boshqaruv hisobi korxona faoliyatini uzoq muddatli rejalashtirish va samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan axborotlarni shakllantiradi. Ushbu jarayonda dastlabki ma'lumotlar tahlil qilinib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarga aylantiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning strategik salohiyatini aniq va o'z vaqtida baholamasdan turib, uning strategik boshqaruv hisobi tizimini samarali shakllantirish mumkin emas. Iqtisodiy adabiyotlar tahlili hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlari xususiyatlarini inobatga olgan holda strategik boshqaruv tizimi samaradorligini kompleks baholash imkonini beruvchi strategik salohiyat ko'rsatkichlari majmuasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan ko'rsatkichlar tizimi faoliyatning turli jihatlarini tavsiflovchi va o'zaro bog'liq bo'lgan tahliliy bloklarga guruhlashtirildi.

Mazkur ko'rsatkichlar majmuasining muhim jihati shundaki, unda moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar ilk bor o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bu esa tanlangan strategiyani amalga oshirish jarayonida oldindan belgilangan strategik maqsad va vazifalarga zarur hollarda tuzatishlar hamda o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ularga tegishli strategik salohiyat bloklari tarkibi va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Bunday yondashuv tegishli tahliliy hisob-kitoblarni amalga oshirish, olingan natijalarni xolisona baholash hamda yuzaga kelgan chetlanishlarning sabablarini aniqlash uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Natijada strategik boshqaruv qarorlarining asoslanganlik darajasi va samaradorligi oshadi.

Strategik maqsadlarga erishishda strategik salohiyatdan samarali foydalanish uchun biznesning ikki muhim jihati — strategik rivojlanish va qayta ishlab chiqarish konturlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash zarur. Mazkur yondashuv zamonaviy strategik boshqaruv hisobi tizimini shakllantirish, uning zarur nazariy-uslubiy asoslarini mustahkamlash hamda mavjud uslubiy bo'shliqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli Farmoni, <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

Abdug'aniyev A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari va ularning yechimlari. – Toshkent: TMI, 2003. – 275 b.

Kadirov A.A., Sanakulov K.S., Bibik I.P. Konseptualnye osnovy strategii innovatsionnogo razvitiya Kyzylkumskogo regiona. – Tashkent: Uzbekistan, 2013. – 400 s.

Kostaev U.U. Strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va amaliy asoslari: monografiya. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2020. – 180 b.

Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi: darslik. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 556 b.

Ward K. Strategicheskiy upravlencheskiy uchet. – Moskva: Ozon.ru, 2002. – 448 s.

Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi: darslik. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2012. – 308 b.

Drury C. Management and Cost Accounting. – London: Thomson Learning, 2000.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>